



THE CONCEPTS OF JUSTICE, LAW, AND SOCIAL ORDER IN THE SOCIO-POLITICAL THOUGHT OF THE QORAXONIYLAR PERIOD

Bekhzod Khamidovich Makhmudov

Associate Professor, Department of Humanities,
National Research University "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers" (TIAME), Candidate of Historical Sciences
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Karakhanids, socio-political thought, justice, law, social order, governance, Yusuf Khas Hajib, Kutadgu Bilig, Mahmud al-Kashgari, legal culture.

Received: 09.09.26

Accepted: 10.09.26

Published: 11.09.26

Abstract: This article examines the formation and meaning of justice, law and social order in the socio-political thought of the Karakhanid period. Yusuf Khas Hajib's "Kutadgu Bilig" and Mahmud al-Kashgari's "Diwan Lughat al-Turk" are used as the principal historical sources. Contemporary studies by Uzbek scholars are also examined comparatively. The article also discusses the historical and philosophical significance of these ideas for contemporary legal and civic culture in Uzbekistan.

QORAXONIYLAR DAVRI IJTIMOIIY-SIYOSIY TAFAKKURIDA ADOLAT, QONUN VA IJTIMOIIY TARTIB KONSEPSIYASI

Bexzod Xamidovich Maxmudov

"Toshkent irrigatsiya va qishloiq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti"
Milliy tadqiqot universiteti Gumanitar fanlar kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Qoraxoniylar, ijtimoiy-siyosiy tafakkur, adolat, qonun, ijtimoiy tartib, davlat boshqaruvi, Yusuf Xos Hojib, Qutadg'u bilig, Mahmud Qoshg'ariy, huquqiy madaniyat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qoraxoniylar davri ijtimoiy-siyosiy tafakkurida adolat, qonun va ijtimoiy tartib tushunchalarining shakllanishi hamda mazmuni tahlil qilinadi. Tadqiqotda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" va Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk"

asarlari asosiy tarixiy manba sifatida o'rganildi. Shuningdek, mavzuga oid mahalliy ilmiy tadqiqotlar qiyosiy tahlil qilindi. Maqolada mazkur tarixiy qarashlarning O'zbekistonning zamonaviy huquqiy va ma'naviy taraqqiyoti uchun ilmiy ahamiyati ham yoritiladi.

КОНЦЕПЦИИ СПРАВЕДЛИВОСТИ, ЗАКОНА И ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ МЫСЛИ ПЕРИОДА КАРАХАНИДОВ

Бехзод Хамидович Махмудов

Доцент кафедры гуманитарных наук,

Национального исследовательского университета

«Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»
(Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства),

кандидат исторических наук

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Караханиды, социально-политическая мысль, справедливость, закон, общественный порядок, государственное управление, Юсуф Хос Хаджиб, Кутадгу билиг, Махмуд Кашгари, правовая культура.

Аннотация: В статье анализируется формирование и содержание понятий справедливости, закона и общественного порядка в социально-политической мысли эпохи Караханидов. Основными историческими источниками исследования являются произведения Юсуфа Хос Хаджиба «Кутадгу билиг» и Махмуда Кашгари «Дивану лугат ат-турк». Наряду с первоисточниками рассмотрены современные исследования узбекских ученых. Особое внимание уделяется историко-философскому значению данных идей для современной правовой и духовной культуры Узбекистана.

Kirish. Qoraxoniylar davri Markaziy Osiyo tarixida siyosiy hokimiyat, islomiy qadriyatlar, turkiy madaniyat va yozma tafakkurning o'zaro ta'siri kuchaygan muhim tarixiy bosqichlardan biridir. Ayniqsa, XI asrda turkiy tilda yaratilgan yirik yozma asarlar jamiyatning davlat, hokimiyat, axloq, bilim, adolat va inson mas'uliyati haqidagi tasavvurlarini o'rganish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bu davr ijtimoiy-siyosiy tafakkurini tadqiq etishda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari alohida ahamiyatga ega. Asar davlatni boshqarish, hukmdor va xalq munosabatlari, insonning axloqiy fazilatlarini, bilim va aqlning ijtimoiy hayotdagi o'rni haqida izchil fikrlar tizimini taqdim etadi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham "Qutadg'u bilig" nafaqat badiiy-

didaktik asar, balki turkiy-islomiy siyosiy-falsafiy tafakkurning muhim manbasi sifatida baholanmoqda [1.109-111 b.].

“Qutadg‘u bilig‘ning badiiy-falsafiy tuzilishida to‘rtta asosiy tushuncha - adolat, davlat, aql va qanoat - ramziy obrazlar orqali ifodalangan. Kuntug‘di adolatni, Oyto‘ldi davlat va saodatni, O‘gdulmish aqlni, O‘zg‘urmish esa qanoatni ifodalovchi obraz sifatida talqin qilinadi [2. 964 b.]. Ushbu ramziy tizim asarning siyosiy va axloqiy mazmunini anglashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda davlat boshqaruvida qonuniylik, adolat, ijtimoiy mas‘uliyat, fuqarolik madaniyati va jamiyat barqarorligi masalalari muhim ilmiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Tarixiy tafakkur merosini zamonaviy tushunchalar bilan aynanlashtirish emas, balki ularning tarixiy ildizlari va ma‘naviy mazmunini ochib berish bugungi ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun ham muhimdir. Shu nuqtai nazardan mazkur tadqiqotning maqsadi Qoraxoniylar davri ijtimoiy-siyosiy tafakkurida adolat, qonun va ijtimoiy tartib tushunchalarining o‘zaro aloqasini tarixiy-falsafiy manbalar asosida tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqotning asosiy manbalari Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig‘” va Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarlaridir. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig‘” asari XI asr turkiy tafakkurining eng muhim yozma yodgorliklaridan biridir. Q. Karimov tomonidan tayyorlangan nashr o‘zbek ilmiy muomalasida keng foydalanilgan manbalardan sanaladi. [2. 964 b.]. Mazkur asarda davlat boshqaruvi, hukmdor mas‘uliyati, adolat, bilim, aql, axloq va inson kamolotiga oid fikrlar o‘zaro bog‘liq holda berilgan. Yusuf Xos Hojib falsafasiga bag‘ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda ham adolat davlat boshqaruvining axloqiy mezonini va jamiyatdagi muvozanatning muhim sharti sifatida talqin qilinmoqda. 2026-yilda e‘lon qilingan tadqiqotda “Qutadg‘u bilig‘ning adolat, davlat va inson kamoloti konsepsiyalari tarixiy-falsafiy hamda aksiologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. [1.109-111 b.].

Shuningdek, 2026-yilda “Science and Education” jurnalida chop etilgan tadqiqotda asardagi adolat, davlat boshqaruvi, axloq va komil inson masalalari tahlil qilingan [3.844-849 b.]. Tadqiqotchilar Kuntug‘di, Oyto‘ldi, O‘gdulmish va O‘zg‘urmish obrazlarining ramziy mazmuniga alohida e‘tibor qaratganlar.

Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari esa Qoraxoniylar davrining ijtimoiy-madaniy muhitini o‘rganishda muhim manbadir. Solih Mutallibov tarjimasini va ilmiy tayyorgarligi asosida ushbu asar Toshkentda “Fan” nashriyotida uch jildda nashr qilingan: I jild - 1960-yil, II jild - 1963-yil, III jild - 1963-yil [4. 499 b. 5.427 b. 6.466 b.]. Tadqiqotda tarixiy-falsafiy, hermenevtik, qiyosiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-falsafiy metod tushunchalarning o‘z davri sharoitidagi mazmunini aniqlashga; hermenevtik metod ramziy

obrazlar va pand-nasihatlarni sharhlashga; qiyosiy metod Yusuf Xos Hojib va Mahmud Qoshg'ariy merosidagi umumiy jihatlarni aniqlashga xizmat qildi.

Muhokama. Qoraxoniylar davri siyosiy tafakkurining o'ziga xos jihatlardan biri davlat boshqaruvi masalasining axloqiy qadriyatlardan ajratilmaganidir. "Qutadg'u bilig"da hukmdorning davlatni boshqarish qobiliyati uning shaxsiy fazilatlari, bilim va adolatga munosabati bilan chambarchas bog'lanadi. Kuntug'di obrazining adolat timsoli sifatida tanlanishi asarning siyosiy-falsafiy konsepsiyasida bevosita ramziy ahamiyatga ega. Bu obraz orqali hokimiyatning ma'naviy chegarasi va hukmdorning jamiyat oldidagi mas'uliyati ifodalanadi. Adolatni faqat sud jarayoni yoki jinoyatga nisbatan jazo bilan chegaralash ushbu tushunchaning "Qutadg'u bilig"dagi mazmunini toraytirgan bo'lar edi. Asarda adolat davlat boshqaruvi, xalq bilan munosabat, mansabdorlarning vazifasi va hukmdorning qarorlarida namoyon bo'ladigan umumiy axloqiy prinsip sifatida ko'rinadi. Bugungi tadqiqotlarda ham "Qutadg'u bilig"dagi adolat davlat barqarorligi va ijtimoiy muvozanatning muhim sharti sifatida izohlanadi [1.109-111 b.]. Shu jihatdan Qoraxoniylar siyosiy tafakkuridagi adolat konsepsiyasini "hokimiyatning o'zini cheklovchi axloqiy mezon" sifatida tavsiflash mumkin. Bunda hukmdor davlatning eng yuqori siyosiy subyekti bo'lsa-da, uning faoliyati axloqiy mas'uliyatdan xoli emas.

Qoraxoniylar davridagi "qonun" tushunchasini hozirgi konstitutsiyaviy-huquqiy tizim bilan aynanlashtirish ilmiy jihatdan ehtiyotkorlikni talab qiladi. XI asr siyosiy-huquqiy tafakkurida qonun, urf-odat, diniy-axloqiy me'yor va hukmdorning buyrug'i zamonaviy huquqiy tizimdan farqli shaklda mavjud bo'lgan. Biroq tarixiy manbalarda jamiyat hayotini muayyan me'yorlar asosida tartibga solish g'oyasi yaqqol ko'zga tashlanadi. "Qutadg'u bilig"da hukmdor ham o'z faoliyatini adolat, aql, bilim va axloqiy mas'uliyat asosida olib borishi lozimligi haqidagi qarashlar mavjud. Shuning uchun mazkur davr tafakkuridagi "qonun" tushunchasini kengroq - ijtimoiy tartibni saqlashga xizmat qiluvchi huquqiy, axloqiy va siyosiy me'yorlar majmui sifatida tadqiq qilish mumkin. Bu yondashuv zamonaviy huquqshunoslikdagi qonun ustuvorligi tushunchasining tarixiy aynan nusxasini izlashdan ko'ra, uning ma'naviy-falsafiy ildizlarini o'rganishga imkon beradi.

"Qutadg'u bilig"da ijtimoiy tartib faqat tashqi nazorat yoki davlat jazosi bilan ta'minlanadigan hodisa sifatida ko'rsatilmaydi. Insonning o'zini tutishi, tilga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi, bilimga intilishi, mehnat qilishi va boshqa kishilarga nisbatan mas'uliyatli bo'lishi ham jamiyat barqarorligining muhim omillari sifatida namoyon bo'ladi. Bu jihat asarning axloqiy-didaktik xususiyati bilan bevosita bog'liq. Muallif davlatni boshqarish masalasini insonning o'zini boshqarish masalasidan ajratmaydi. Boshqacha aytganda, davlatdagi tartib shaxsdagi tartib bilan uyg'unlashadi. Shu sababli "Qutadg'u bilig"dagi ijtimoiy tartib

konsepsiyasini uch darajada ko'rish mumkin: shaxsiy daraja - o'zini nazorat qilish va axloqiy mas'uliyat; ijtimoiy daraja - o'zaro hurmat, hamkorlik va majburiyat; davlat darajasi - adolatli boshqaruv va tartibni ta'minlash. Ushbu uchlik Qoraxoniylar davri ijtimoiy-siyosiy tafakkurining yaxlitligini ko'rsatadi.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari bevosita davlat boshqaruvi nazariyasiga bag'ishlangan asar emas. Shu sababli undan "qonun" yoki "davlat" tushunchalariga oid fikrlarni majburan izlash metodologik jihatdan to'g'ri bo'lmaydi. Biroq "Devon"da til, xalq, urf-odat, maqol, hikmatli so'z va ijtimoiy tajribaga oid juda katta material jamlangan. Shu sababli asar XI asr turkiy jamiyatining dunyoqarashi va ijtimoiy qadriyatlarini bilish uchun muhim manba hisoblanadi. [4. 499 b. 5.427 b. 6.466 b.]. "Devonu lug'otit turk"dagi maqollar va hikmatli ifodalar jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, mehnat, do'stlik, hamkorlik, jasorat, bilim va axloq kabi qadriyatlarni o'rganish imkonini beradi. Shu jihatdan Mahmud Qoshg'ariy merosida ijtimoiy tartibning madaniy va kommunikativ asoslarini ko'rish mumkin. Ya'ni jamiyatni birlashtiruvchi me'yorlar faqat siyosiy hokimiyat orqali emas, balki til, an'ana, qadriyat va umumiy ijtimoiy tajriba orqali ham shakllanadi. Tahlil natijalari ushbu uch tushunchani alohida-alohida emas, balki yagona ijtimoiy-falsafiy tizim sifatida ko'rish imkonini beradi.

Adolat - davlat hokimiyatining axloqiy mezon.

Qonun va me'yor - jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi vosita.

Ijtimoiy tartib - adolatli boshqaruv va me'yorlarga rioya qilishning ijtimoiy natijasi. Bu munosabatni quyidagi konseptual ketma-ketlik orqali ifodalash mumkin:

Adolat → me'yor va qonun → mas'uliyat → ijtimoiy tartib → jamiyat barqarorligi.

Mazkur modelni zamonaviy huquqiy davlat tushunchasi bilan aynanlashtirish emas, balki uning tarixiy-falsafiy ildizlarini anglash nuqtayi nazaridan baholash lozim.

Natijalar. Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi.

Birinchidan, Qoraxoniylar davri ijtimoiy-siyosiy tafakkurida davlat boshqaruvi axloqiy qadriyatlardan ajralmagan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida adolat hukmdor faoliyatining muhim mezon sifatida talqin qilinadi.

Ikkinchidan, hukmdorning davlatdagi mavqei uning mas'uliyatini ham oshiradi. Hokimiyatning mazmuni faqat buyruq berish emas, balki jamiyat farovonligi va tartibini ta'minlash bilan bog'lanadi.

Uchinchidan, qonun va ijtimoiy me'yorlar tushunchalari Qoraxoniylar davrida bugungi huquqiy tizimdan farqli tarixiy shaklda mavjud bo'lgan. Shuning uchun tarixiy manbalarni zamonaviy huquqiy kategoriyalar bilan to'g'ridan-to'g'ri tenglashtirishdan saqlanish zarur.

To'rtinchidan, ijtimoiy tartib davlat nazorati bilan bir qatorda shaxsning ichki mas'uliyati, axloqiy tarbiyasi va jamiyat manfaatlarini anglashiga ham bog'langan.

Beshinchidan, Mahmud Koshg'ariy merosi ijtimoiy tartibning madaniy asoslarini tushunish uchun muhim manba bo'lib, til, urf-odat, maqol va umumiy qadriyatlarning jamiyatni birlashtiruvchi funksiyasini ko'rsatadi.

Oltinchidan, Qoraxoniylar davri merosida adolat, bilim, aql, mas'uliyat va ijtimoiy hamjihatlikning o'zaro bog'langan tizimi mavjud. Zamonaviy tadqiqotlarda ham "Qutadg'u bilig"ning adolat, davlat va inson kamoloti bilan bog'liq konsepsiyalari alohida qayd etilmoqda.

Xulosa. Qoraxoniylar davri ijtimoiy-siyosiy tafakkuri Markaziy Osiyo tarixidagi davlat, jamiyat va inson munosabatlarini anglashning muhim manbalaridan biridir. Ayniqsa, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari davlat boshqaruvi va axloqiy qadriyatlarni bir butun tizim sifatida ko'rishga imkon beradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, mazkur tafakkur tizimida adolat hokimiyatning axloqiy chegarasini belgilovchi tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Qonun va me'yorlar jamiyatdagi munosabatlarning tartibga solinishini ta'minlasa, ijtimoiy tartib shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro mas'uliyatning natijasi sifatida ko'rinadi. Yusuf Xos Hojibning adolat, davlat, aql va qanoat haqidagi qarashlari bugungi kunda tarixiy meros sifatida o'rganilishi mumkin. Biroq ularni zamonaviy huquqiy davlat konsepsiyasining to'g'ridan-to'g'ri shakli sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan ehtiyotkorlikni talab qiladi. Muhimi, tarixiy manbalar orqali jamiyat va davlat munosabatlarida adolat, mas'uliyat, bilim va axloqiy me'yorlarning qadimiy ildizlarini ko'rsatishdir.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari esa mazkur jarayonning madaniy-lisoniy asoslarini o'rganish imkonini beradi. Asarda aks etgan xalq og'zaki ijodi, maqollar, urf-odat va ijtimoiy tajriba turkiy jamiyatning umumiy qadriyatlar tizimini anglashga xizmat qiladi. Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, Qoraxoniylar davri siyosiy-falsafiy merosini huquqshunoslik, siyosatshunoslik, falsafa va tarix fanlari kesishmasida kompleks o'rganish; ikkinchidan, "Qutadg'u bilig"dagi adolat va boshqaruv konsepsiyalarini zamonaviy davlat boshqaruvi bilan tarixiy-qiyosiy nuqtayi nazardan tadqiq etish; uchinchidan, "Devonu lug'otit turk"dagi ijtimoiy qadriyatlarni zamonaviy fuqarolik madaniyati tadqiqotlari bilan qiyoslash maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, Qoraxoniylar davri ijtimoiy-siyosiy tafakkurida adolat, qonun va ijtimoiy tartib alohida emas, balki bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar sifatida shakllangan. Ularning tarixiy mazmunini chuqur o'rganish O'zbekistonning ko'p asrlik davlatchilik va ma'naviy tafakkur tajribasini ilmiy anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xo'jayev D. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida adolat, davlat va inson kamoloti konsepsiyasi // Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar. - 2026. DOI: 10.67227/jkb04850. 109-111 b.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Q. Karimov tabdili. – Toshkent: Fan, 1971.– 964 b.
3. Valijonova M., Mirzakarimova M. Yusuf Hos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida axloqiy qadriyatlar tizimi // Science and Education. - 2026. - Vol. 7. - No. 4. - B. 844-849.
4. Qoshg'ariy M. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk). Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1960. B.- 499.
5. Qoshg'ariy M. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk). Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. 2-jild. – Toshkent: Fan, 1963. B-427.
6. Qoshg'ariy M. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk). Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. 3-jild. – Toshkent: Fan, 1963.B-466.